



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA OLMOSHLARNING LINGVOPRAGMATIK TALQINI.

Ra'no Eshaliyeva

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universitetining magistranti.

Annotasiya: *O'zbek tilshunosligida pragmatika terminini kirib kelishi, o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi, olmosh so'z turkumining pragmatik talqini.*

Kalit so'zlar: *Pragmatika, Charls Pirs, G Klaus, lisoniy vositalar, belgilar, tinglovchi, olmosh, presupozitsiya.*

O'zbek tilshunosligimizda yangi davr bilan hamnafas, yangicha yondoshuvlar kuzatilmoqda. Globallashuv davrida so'zlarning ma'noli jihatlari, tag ma'nolari o'rganilmoqda, ya'ni tilimizning so'zga va ma'no mazmunga boy ekanligini bilib bormoqdamiz. Har birimiz ongimizda shakllanadigan fikrimizni nutqimiz orqali bayon etamiz. Buni biz tinglovchiga qanday yetkazamiz, fikrimizni turli belgi va ishoralar oqali ham izhor etishimiz mumkin. Shunday ekan bu tillarimizning rang- barang jihatlari Pragmatika sohasida o'rganamiz.

Pragmatika nima? (yunoncha-pragmatos-ish harakat) ya'ni nutqimizdagi fikr semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilinishini o'rganuvchi sohasidir. Boshqacha qilib aytganda muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'idir.

"XIX asr oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo'lgan falsafiy pragmatizm yo'nalishini asoschilaridan biri Charls Pirs edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g'oyasini semiotika belgining ma'no mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari muvofiqiyati bilan bog'liq holda o'rganishdir." Bu tamoil muallifi Charls Pirs birinchidan bo'lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat sub'yekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi. So'ngra Ch Morlis bu g'oyani rivojlantirdi.

Pragmatikani „Qayta tuzilishi davri“ deb e'tirof etilgan, xuddi shu paytdan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik ko'tarilish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig'ilishlar o'tkazildi, chop qilinayotgan to'plamlar, ilmiy tadqiqotlarning chegarasi yo'q. Gournal of Pragmatics tom ma'noda xalqaro nashrga aylandi. Pragmalingvistikani predmetini aniqlashda ilk bor ahd qilganlardan biri G.Klaus edi. U pragmatikani, „belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi munosabatni qabul qiluvchi shaxslar o'rtasida munosabatni o'rganuvchi fan“ sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rifda ko'rinib turibdiki pragmatikani predmetini aniqlashda G.Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi, hatto uning pragmatika dastlabki o'rinda lisoniy belgilarning psixologik va satsiologik tomonlarini





o'rganuvchi nazariyadir"degan xulosani ham pragmatika tushunchasini tor ma'noda tavsiflashdan boshqa narsa emas.

J.Layonz tilshunoslarning 12- xalqaro konferensiyasida (Vena 1977) pragmalogvistikaning predmetini aniqlash va uni ta'rifini berishga harakat qildi."Pragmatika tinglovchilarga uzatiliyotgan axborotni xuddi so'zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan.lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo'llanishini tavsiflaydi.Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqotdagirolini aniqlash bilan shig'illanadi,deyish demakdir."(Proceedings 1978:26). Ushbu ta'rifning asosida lisoniy harakatdagi ko'zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi o'rtasidagi munosabat turibdi.

„Sabab-motiv-maqsad"zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqealanishini ta'minlaydi.Xuddi ,shu narsa A.Kosherning pragmalogvistik tahlilning asosiy maqsadini „qo'yilgan maqsadga erishishda lisoniy vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos bo'lgan qobiliyat qobiliyat qoidalarni "yoritish va tushuntirish deb tasvirlashga undaydi.(A.Kasher 1979:38)

Pragmatika sohasi bo'yicha olimlarning fikrini o'rganish bilan birgalikda nutqda uzatiliyotgan fikrni tinglovchiga yetkazish ya'ni adresat aytgan so'zni adresantga uzatishda ma'no mazmunning mohiyatini tushunib yetishdan iborat.Fikrni yetkazish so'zlovchining mahoratiga ham bog'liq bu mahoratni ko'ra bilish,tushunib yetish pragmatika sohasida o'rganiladi.O'zbek tilshunosligida pragmatika sohasi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan olimlarimiz bor.A.Nurmonov ,M.Hakimov ,Sh. Safarovlar ushbu soha bo'yicha ilmiy ishlar olib borgan.Pragmatika sohasini o'rganish XXI asr o'zbek tilshunosligida ham yetakchi o'rinda o'rganilmoqda.

O'zbek tilshunosligida belgi va ishora bildiruvchi so'zlar uchraydi.Bunday so'zlar boshqa so'z turkumi o'rnida almashinib ishlatiladi.Bu turkumni olmosh so'z turkumi deb ataymiz.Olmosh so'z turkumi ustida ish olib borgan tadqiqotchi olimlarimiz bor, jumladan,R Qo'ng'urov,S Karimov ,O Yusupova,M Hakimov,O' Mamajonovlar ilmiy ishlar olib borgan.Boshqa tillarda uchramaydigan bu so'z turkumi atash ma'nosiga ega emas.Olmosh so'z turkumi o'rganilishi,Olmosh-ot,sifat,son o'rnida qo'llanuvchi mustaqil so'z turkumi.Olmoshlarning asosiy ma'nosi va qaysi so'z o'rnida qo'llanilishi matnda oydinlashadi.Olmoshlarning ma'nosi noaniq va umumiy bo'ladi.Ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra,Olmosh umumlashgan predmet(Olmosh-ot:men,sen,u,kim,nima,hech kim,hech nima),umumlashgan belgi(Olmosh-sifat: bu,shu,o'sha,qaysi,allaqanday,hech qanday),umumlashgan miqdor (Olmosh-son:qancha,necha,muncha,o'shancha) bildiruvchi Olmoshga bo'linadi.Olmoshlar noaniqligi ,so'z yasaliishini yo'qligi bilan boshqa so'z turkumi bilan farqlanadi.Olmoshlar ma'no va xususiyatiga ko'ra,quyidagi turlarga bo'linadi: kishilik olmoshlari-men,sen,u,biz,siz,ular bo'lib,shaxslar o'rnida ishlatiladi.O'zlik olmoshi- o'z so'zidan iborat bo'lib,predmet ma'nosini kuchaytirib,ta'kidlab ko'rsatadi.Ko'rsatish olmoshi-u,bu,o'sha,u,ana,mana kabilar predmet va ularni belgilarini ko'rsatadi.So'roq olmoshi-kim?,nima?,qancha? qanday kabilar predmet,belgi va miqdor haqida so'roqni





bildiradi. Belgilash, jamlash olmoshi-hamma ,bari,ba'zan,har nima,har qanday kabilar predmet va ularning belgisini umumlashtirib,jamlab ko'rsatadi.Bo'lishsizlik olmoshi-hech kim,hech qanday,hech qanaqa,hech qaysi kabilar inkor ma'nosini bildiradi.Gumon olmoshi-allanima,allakim,allaqachon,kimdir,nimadir,qachondir singari ma'no turlarga bo'linadi.

Olmoshlar ishora va belgi bildiruvchi xususiyatiga ega ekan uning pragmatik tomoni ham mavjuddir.Bu jihatlar matnning so'zlarida nomoyon bo'ladi.Buni tahlil etish bu o'quvchiga xos.Nutqimizda fikrimizni tinglovchiga yetkazish uchun aloqa kuzatiladi.So'zlovchi (adresat) nima demoqchi,tinglovchi (adresant)buni qanday qabul qilyapti,shuni aniqlashni sabab-maqсадlari o'rganiladi.Buni biz olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlari orqali o'rganamiz.Tilimizda so'zlovchi nutqida presuppozetsiyalar uchraydi.Ichki ma'no tilning semantikasini aniqlashda bu

presuppozitsiya so'zlar ishlatiladi,bu so'zlarning tag ma'nosi bo'lib tinglovchi buni tezda farqlay oladi,yoki so'zlovchi o'z fikrini tinglovchiga o'tkaza oladi.Olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashda nutqiy matnlardan foydalanamiz.Olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlarini qo'yidagi misollar orqali ifodalaymiz.Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra ifodalanadi.

1.U qachon ketdi?(So'roq mazmunini ifodalanayapti,vaqtini ,qay paytda ketganligini so'rayapti)

2.U ketgan.(darak mazmunini bildiryapti,allaqachon ketganligini aytayapti,demak, so'rayotgan kishi tanishi ekanligini bildiryapti.)

Nutqiy aktda so'zlovchi va tinglovchining munosabati fikrini yetkaza olish jihatlarini o'rganiladi.Qo'yidagi gapga e'tibor qaratamiz fikrni tag ma'nosini ko'ra olish bu olmoshlarni qo'llanilishi ,lingvopragmatik xususiyatlaridan biridir.

1.Bir xil talabalar berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarmaydi.(bu gapda ayrim talabalar berilgan topshiriqni belgilangan muddatda topshirmasligini aytib o'tgan bo'lsa)

2.Bir xil talabalar berilgan topshiriqlarni o'zi, vaqtida bajarmaydi.(Bu gapda bir turdagi talabalarning o'zi topshiriqni vaqtida bajarmasligini aytib o'tyapti).Bu gaplar orqali o'z olmoshi o'zi i egalik qo'shimchasini olganda gapning ma'nosi tubdan o'zgarganligini kuzatamiz.Bu ham gapda ta'kid va e'tiroz mazmunida kelyapti.

1.Akasi unga bir nima deganday bo'ldi.(Bu gap xabar mazmunini bildiradi,unga ko'rsatish olmoshi mavjud,bir nima, so'roq olmoshi uchraydi.Akasi nimadir demoqchi bo'lganligini aytib o'tyapti.)

2.Akasi unga bir ,nima?deganday bo'ldi.(Bu gap so'roq ohangida aytilyapti darak gap,kishilik olmoshi,nima? -so'roq olmoshi mavjud.Akasi bir marta nima?deganday bo'lganligini ta'kidlayapti).Bu misollar orqali olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlarini ishoraviy tag ma'noga ega ekanligini aniqlaymiz.Bundan tashqari presuppozetsiya jihatlarini ham olmosh so'z turkumida uchratamiz.Tag ma'noga ham ega,hurmat ma'nosini ham ifodalaydigan olmoshlarimiz ham mavjud.





1.U kishi keldi.(Bu gapda u kishilik olmoshi bo'lib, xabar mazmunida chaqirilgan mehmon kelganligini bildirsa.)

2,U kishi keldi.(Bu gapimizda esa ko'rsatish olmoshi o'rnida,hurmat ma'nosini ifodalab yaqin insoni (yori)kelganligini ko'rsatib tanishtirayapti)Bu misollar orqali olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash, hozirda tilshunosligimizning dolzarb masalalaridan ekanligini ,buni tushunishimiz mushkulroq ekanligini anglaymiz.Yoki qo'yidagi gaplar orqali olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlarini kuzatamiz.

1Tezda qaytamen.(Hozir kelaman ma'nosini beryapti,men kishilik olmoshi qo'llanilayapti)

2.Tezda,qayta ,men.(Tezroq yana qayta topshirish zarurligi kuzatilyapti.

3.Keyin qaytamen.(keyinroq kelaman)

4.Keyin qaytaman.(keyin men nima qilaman degan ma'nolarni beryapti.)

Umuman olganda bu gaplarda kishilik olmoshi men va man sinonim olmoshlari qo'llanganda lingvopragmatik ma'nolarini uchratamiz.O'zbek tilshunosligida olmoshlarning lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish ,tahlil etish,so'zga boy tilimizni o'rganish.Bu tilimiz taraqqiyotining rivojlanishiga katta xissa qo'shadi.Shuning uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish,olmosh so'z turkumini o'rganish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Karimov S .Olmoshlarning funksional stilistik chegaralanishi/O'zbek tilining gramatik qurilishi stilistikasi.Ilmiy maqolalar to'plami.SamDU.1992 80-85 b

2.Mamatov A.E.Zamonaviy lingvistika. Toshkent.Noshir.2019.

3.Hakimov M.O'zbek pragmalingvistika asoslari.Toshkent.2013.

4.Hakimov M.O'zbek ilmiy matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari:Filol..Fan...no..di..diss.Toshkent.1993.17-21 6

5.NurmonovA,Hakimov M.Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi.O'zbek tili va adabiyoti.2001.

6.Qo'ng'urov R .O'zbek tili stilistikasidan ochirklar.SamDU.1975.

7.Yusupova O.O'zbek tilida olmoshlarning funksional stilistik xususiyatlari.Samarqand.2017

8.Rahimova M.Pragmatik-funksion konsepsiya.Pragmalingvistikaning ta'lim yo'nalishiga ta'siri.maqola 2021.

